

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

G‘ULOMOVA RUXSORA BURIYEVNA

EKOLOGIK GLOBALASHUV SHAROITIDA O‘ZBEKISTONNING
IJTIMOYIY-EKOLOGIK SIYOSATI

09.00.04 -Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

G‘ulomova Ruxsora Buriyevna

Ekologik globallashuv sharoitida O‘zbekistonning
ijtimoiy-ekologik siyosati3

Гуломова Рухсора Буриевна

Социально-экологическая политика Узбекистана в условиях
экологической глобализации23

Gulomova Rukhsora Buriyevna

Social-Ecological Policy of Uzbekistan in the Context
of Environmental Globalization.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ.
List of works published.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

G'ULOMOVA RUXSORA BURIYEVNA

**EKOLOGIK GLOBALASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING
IJTIMOIY-EKOLOGIK SIYOSATI**

09.00.04 -Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fal1476 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Shahrisabz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Omonov Bahodir Nurillayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Salomova Hakima Yusupovna
falsafa fanlari doktori, professor

Juraqulov Husan Anvarovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "31" Mart soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (842 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "13" Mart kuni tarqatildi.

(2026-yil "13" Mart dagi 3 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ekologik muammolarning jadallashuvi lokal yoki mintaqaviy chegaralardan chiqib, global tus oldi va “ekologik globallashuv” xavfsizlikni ta’minlash borasidagi vazifalarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu jarayon tabiiy resurslar taqchilligini, iqlim o’zgarishi kabi xavflarni kuchaytirib, davlat ekologik siyosatining keng qamrovli bo’lishiga, uning tarkibida ijtimoiy-ekologik siyosatni shakllantirishga hamda ijtimoiy-muhofazani ta’minlashga bo’lgan talabni oshirmoqda. Shunga ko’ra, ijtimoiy-ekologik siyosatning mazmuni, tarkibi, ekologik muhitni barqarorlashtirishdagi ahamiyati va aholini ekologik tahdidlardan himoyalashning ijtimoiy omillarini aniqlash asosida bir tomondan, davlat ekologik siyosatini takomillashtirish, ikkinchi tomondan, ijtimoiy-ekologik siyosatning zamonaviy modellarini joriy etish xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida davlat ekologik siyosatining demokratik xarakteri va gumanistik mohiyatini aniqlashtirishga, ijtimoiy-ekologik munosabatlarni tartibga solish, ekologik muammolarning ijtimoiy-ma’naviy muhitga ta’sirini o’rganishga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Inson va tabiat o’rtasidagi ziddiyatlarning global xususiyat kasb etishi, “o’sish chegaralari” va resurs taqchilligi masalalari, shuningdek ekologik inqirozning sabablari texnokratik rivojlanish va iste’molchilik kayfiyatining kuchayishi bilan bog’liq bo’lib, zamonaviy modernizatsiya jarayonlari ijtimoiy-ekologik siyosatni ekotsentrizm nuqtayi nazaridan shakllantirishni, ijtimoiy-ekologik rivojlanish qonuniyatlarini jamiyat ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga moslashtirishni dolzarblashtirmoqda. Bu jarayonda ayniqsa, ekologik muammolar kuchayishining ijtimoiy omillarini, ijtimoiy-ekologik muhofazani kuchaytirishning obyektiv va subyektiv asoslarini, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, bu faoliyatni takomillashtirish va integratsiyalashtirish yo’llarini aniqlashtirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda “yashil taraqqiyot” tamoyiliga asosan atrof-muhit holatini yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta’sir yetkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish va “yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. “Biz qonunchiligimizda jamiyatda barqaror rivojlanish va ekologik madaniyatni shakllantirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratmoqdamiz. Zero, jamiyatda tabiiy resurslar va atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo’lish bo’yicha an’anaviy qadriyatlarni qaror toptirmasdan turib, uch inqirozga qarshi turish mumkin emas”¹. Shuning uchun O‘zbekistonda ekologik muammolarning kuchayishi, mintaqani barqarorlashtirishda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, institutsional tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish mexanizmlarini asoslash, ekologik vaziyati og‘ir hududlarda ijtimoiy-ekologik muhofazani barqaror rivojlantirish siyosati istiqbollarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

¹Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент:“O‘zbekiston”, 2024. -Б.379.

O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan 754-XII-son “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023-yil 31-maydagi PF-81-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 3-oktyabrdagi PQ-3956-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-yanvardagi 29-son “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 2019-yil 27-maydagi 434-son “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavzuga doir muammolar jahon olimlari tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, uning ijtimoiy jihatlarini I. Arsenteva, V. Hyosle, U. Bek, A. Grevseva, M. A. Vostrikova, R. S. Gaysina, Ye. V. Luneva, V. V. Shkoda asarlarida, ekologik vaziyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish xususiyatlari V. V. Shtang, V. Yu. Vershinina, I. A. Zvolinskaya, P. M. Mozias, A. V. Karanda asarlarida asoslab berilgan².

² Арсентьева И.И. Глобализация и перспективы мирового развития//Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена, 2008, №8.; Бек У. Общество риска. На пути к другому модерну. –М.: Прогресс-Традиция, 2000. –384 с.; Гревцева А. Современные экологические угрозы: социально-философский анализ. –СПб.: Наука, 2017. –210 с.; Витторно Хёсле. Экология и философия. –М.: 1994. –С.137; Вострикова М. А. Рациональное природопользование как основа устойчивого развития региона // Экономика и экология. –2021. – № 3. – С. 95–102.; Гайсина Р.С. Экологическая ситуация: взгляды на сущность, образование и пути решения// Концепт, 2013, №6.; Luneva E. B. Экообразование как фактор формирования экологического сознания молодежи // Современные проблемы науки и образования. – 2020. – № 6. –С. 83–87.; Шкодал В. В. Экологическое мышление в контексте глобальных вызовов // Экология и жизнь. –2022. –№ 2. –С. 14–18.; V.Y. Vershinina, L. Lyadova. Города —острова экологической надежды? // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. 2022. № 4. С. 354.; Зволинская И.А. Экологическая политика Российской Федерации и оборонная сфера// Вестник военного университета, 2011, №4.; Игнатенко А.Ю. Экологическая политика и образование в Соединенных Штатах Америки// Экология и безопасность в техносфере: современные проблемы и пути решения. –Томск: ТПУ, 2015.; Каранда А.В. Экологическая политика: понятие, виды, принципы// Молодой ученый, 2020, №3

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi doirasida ekologik globallashuv va ijtimoiy-ekologik siyosat mazmuni, tarixan shakllanish muammosini tadqiq qilgan olimlar qatoriga L.N.Garusova, U.Y.Kuryanova, Ye.V.Matveyeva, I.Bashlakova, K.A.Berdenova, G.A.Drobot, Ye.V.Kochetkova, S.V.Sinsov, A.Yu.Ignatenko, S.M.Kopilov, S.I.Petoshinava boshqalarni kiritish mumkin³.

O'zbekistonda ham ekologik soha bilan bog'liq ilmiy-falsafiy muammolar atroflicha tadqiq qilingan. Jumladan H.Ahmedov, S.Mamashokirov, A.Nig'matov, G'.Pardayev, U.Xo'janazarov, O.Qosimov, A.Qo'ldoshev, X.Aliqulov, X.Juraqulov va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida barqaror ekologik taraqqiyot va xavfsizlikning milliy, hududiy va global muammolari bayon etiladi. B.Alixonov, M.Bahodirov, D.Sa'dullayev, G'.Tolibov va boshqalarning ilmiy ishlarida ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarurligi asoslanadi⁴.

Davlat ekologik siyosatining iqtisodiy mexanizmlari A.Abdullayev, N.Ikromova, S.K.Maxmudov, S.Samayilov dissertatsiyalarida aks ettirilgan. Respublikamizda ekologik madaniyatning ayrim ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rganishda A.K.Berdimurodova, S.Sanginov kabi olimlarning dissertatsiyalari natijalari diqqatga sazovor. Tadqiqotlarida Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik muammolar va davlat ekologik siyosatiga doir ilmiy qarashlarni A.Berdimurotova, H.Yu.Salomova, Sh.B.Samanova va boshqa olimlar o'z asarlarida bayon qilganlar. O'zbekistonning Orolbo'yi mintaqasidagi ijtimoiy-ekologik siyosati mavzusida B.N.Omonov ilmiy tadqiqot olib borgan⁵.

³Гарусова Л.Н., Курьянова У.Ю. Политика и законодательство США в экологической сфере// Труды Института истории, археологии и этнографии ДВО РАН, 2019, №24.; Курьянова И. В., Тюлин А. С. Города — острова экологической надежды? // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. 2022. № 4. С. 354.; Матвеева Е.В. Институционализация экологических движений Европы: от появления общественных организаций до политических партий// Вестник Томского государственного университета, 2016, № 413.; Башлакова О. И. Экологическое образование государственных служащих // Научное обозрение. Серия 2: Гуманитарные науки. 2012. № 5. С. 35–45.; Берденова К. А., Штанг В. В., Синцов С. В. “Зелёная” экономика как двигатель устойчивого развития // Сибирский торгово-экономический журнал. 2012. № 15. С. 4–7.; Дробот В. И. Индикация состояния природных экосистем и нормирование // Тез. докл. Междунар. конф. “Фин-угор мир: состояние природы и регион. стратегия защиты окруж. Среды”, датан/д.; Kochetkova E. Technological style of production and ecology in USSR in 1940–1950-es: the example of Karelian Isthmus // ResearchGate. 2018–2019.; Петошина С.И. Отчуждение как социокультурный феномен и понятие социально-философского анализа: автореферат дис. ... кандидата философских наук. – Архангельск: 2010. - 22 с.

⁴ Ahmedov H. Barqaror ekologik taraqqiyotning ijtimoiy-falsafiy asoslari: falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2016. –198 b.; Mamashokirov S. Ekologik xavfsizlik va jamiyat taraqqiyoti: falsafa fanlari nomzodi dissertatsiyasi. –Toshkent, 2013. –174 б; Ниғматов А., Пардаев Ф. Экологик хавфсизлик ва барқарор ривожланиш. – Т.: 2005.; Хо'janazarov U. Ekologik muammolar va global xavfsizlik: falsafiy tahlil. – Qarshi: Nasaf, 2018. – 193 б.; Qosimov O. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi va ekologik xavfsizlik. – Toshkent, 2017. – 210 .; Қўлдошев А. Марказий Осиё давлатларида экологик муносабатларни бошқаришнинг демократик ва гуманистик тамойиллари. –Т.: “Фан”, 2014.; Аликулов Х.А. Глобаллашув шароитида экологик хавф-хатарни олдини олишнинг ижтимоий-фалсафий механизмлари. Дис.. –Т.: ЎзМУ.2024.; Джуракулов Х. Замонавий экотуризм ривожиди шахс экологик ҳуқуқий онгини юксалтириш зарурияти: Фалс.ф.д. (DSc) дисс. автореф. - Самарқанд: СамДУ, 2022. -76 б. Алихонов Б. Экологик барқарорлик ва халқаро институтлар: монография. – Тошкент: Адолат, 2015. – 222 б.; Баҳодиров М. Халқаро экологик ташаббусларда Ўзбекистоннинг иштироки. – Бухоро, 2019. – 195 б.; Саъдуллаев Д. Глобал экологик муаммолар ва Ўзбекистоннинг стратегияси. – Нукус, 2021. – 187 б.;

⁵Абдуллаев А. Экологик сиёсатнинг иқтисодий механизмлари: иқтисод фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2017. – 174 б.; Икромова Н. Давлат экологик стратегиясида молиялаштириш тизими. – Тошкент, 2019. – 182 б.; Махмудов С.К. Экологик сиёсат ва бозор муносабатлари. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2021. – 204 б.; Саманова Ш. Б. Экологик толерантликнинг ижтимоий-фалсафий асослари : фалс. фан. фалс. док. (PhD)

Dissertatsiya ishida yuqorida nomlari tilga olingan mahalliy va xorijiy olimlarning falsafiy mazmundagi ilmiy tahlillari tadqiqotning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qildi. Mazkur ilmiy ishlarda insonni tabiat bilan bog'liq ijtimoiy-falsafiy muammolar, o'zgarishlar, hozirgi integratsiya va globalizatsiya jarayonlari bilan bog'liq jihatlari tahlil etilgan. Shu sababli, ushbu dissertatsiyada ekologik globallashuv va ijtimoiy-ekologik siyosatni shakllantirishning ilmiy-falsafiy asoslari hamda O'zbekistonda ijtimoiy-ekologik muhofazani barqaror rivojlantirish siyosati istiqbollari diqqat qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Shahrisabz davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Ijtimoiy fanlarni o'qitishda zamonaviy yondashuv: axborot texnologiyalari va interfaol usullar" (2022-2026 yy) mavzusidagi tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston ijtimoiy-ekologik siyosatining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"ekologik globallashuv" va "ijtimoiy-ekologik siyosat" tushunchasining mazmun-mohiyati, ularning ijtimoiy-falsafiy kategoriyalar tizimidagi o'rnini hamda shakllanish genezisini tadqiq etish;

O'zbekistonda ekologik muammolarning yuzaga kelishi va kuchayish omillari, ijtimoiy-ekologik siyosatning ilmiy-falsafiy asoslarini tahlil qilish;

globallashuv jarayonida ekologik tahdidlarning O'zbekiston ijtimoiy-ekologik muhitiga ta'sirini, ijtimoiy-ekologik muhofazani kuchaytirishning obyektiv va subyektiv omillari dialektikasini asoslash;

O'zbekiston ekologik siyosatida Orolbo'yi mintaqasi muammolarini hal etish muammolari va konseptual yechimlarini aniqlashtirish;

ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish zaruratini asoslash;

O'zbekistonda ijtimoiy-ekologik muhofazani ta'minlash va barqaror rivojlantirishning istiqbollari o'ldirish uchun taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida ekologik globallashuv va uning O'zbekiston ijtimoiy-ekologik siyosatiga ta'sir etuvchi jarayonlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti globallashuv sharoitida O'zbekiston ijtimoiy-ekologik siyosatini optimallashtirish qonuniyatlari, tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillari hamda uning strategik yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz,

дисс. автореф. – Самарқанд : СамДУ, 2019. – 42 б. Джуракулов Х. Замонавий экотуризм ривожиди шахс экологик ҳуқуқий онгини юксалтириш зарурияти : фалс. фан. док. (DSc) дисс. автореф. – Самарқанд : СамДУ, 2022. – 48 б. Тилавов Ў. Ф. Глобал барқарор таракқиётда экологик партияларнинг роли (ижтимоий-фалсафий таҳлил) : фалс. фан. док. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент : ЎзМУ, 2021. – 50 б.; Саломова Х.Ю. Меъёрнинг фалсафий моҳияти ва амалий аҳамияти. – Бухоро: Дурдона, 2018. – 144 б; Омонов .Н. Экологик глобаллашув ва унинг Ўзбекистон экологик сиёсатига таъсири: фалс. ф. д. (DSc) дисс. автореф. – Самарқанд: СамДУ, 2022. – 48 б.

retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, germenevtik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy-ekologik siyosatning antitsipativ (muammoni oldindan ko'ra bilish), integrativ (davlat va jamiyat birligi) va inklyuziv (barcha qatlamlarni qamrab olish) kabi innovatsion xarakteri, uning ekologik muhitni barqarorlashtirishdagi tabiat va jamiyatni o'zaro uyg'un rivojlanishni ta'minlash, sinergetik samaradorlikka erishish hamda ekzistensial xavfsizlikni kafolatlashdagi strategik ahamiyati hamda aholini ekologik tahdidlardan himoyalashning institutsional-huquqiy (qonun ustuvorligi), kognitiv-ma'rifiy (ekologik ong va ta'lim) va siyosiy (ochiqlik va shaffoflik) kabi omillari ochib berilgan;

O'zbekistonda ekologik muammolar eskalatsiyasining siyosiy-iqtisodiy determinizm, geosiyosiy maqsadlar va strategik maqsadga yo'naltirilgan texnokratik siyosat kabi paradigmalar bilan bog'liqligi, ekologik globallashtirishning xalqaro ekologik standartlar integratsiyasi, transchegaraviy hamkorlik va barqaror rivojlanish konsepsiyasining institutsionallashtirish kabi omillari aniqlashtirilgan;

ijtimoiy-ekologik muhofazani kuchaytirishning obyektiv (konstitutsiyaviy-huquqiy bazaning yangilanganligi, tabiiy-resurs bo'yicha ma'danga boyligi va xalqaro geosiyosiy integratsiya, ijtimoiy institutsional tuzilma tizimi) kabi hamda subyektiv (siyosiy iroda, ekologik ong va madaniyat transformatsiyasi, ilmiy-intellektual salohiyat va innovatsion tafakkur, volontyorlik harakatining institutsionallashtirish kabi imkoniyatlari asoslab berilgan;

O'zbekistonning ekologik inqirozga uchragan hududlarida ijtimoiy-ekologik muhofazani barqaror rivojlantirish siyosatining "Yashil makon" umummilliy loyihasi tamoyillarini kommunal infratuzilma va urbanistika tizimiga integratsiya qilish, aholi uchun qulay va xavfsiz "ekomuhit" yaratish, hudud aholisining biologik va ijtimoiy moslashuv (adaptatsiya) salohiyatini yuksaltirish kabi strategik istiqbollari hamda uning ijtimoiy samaradorligini oshirishning hududlarning ijtimoiy-ekologik pasportlashtirish tizimini raqamlashtirish, mahalla institutida jamoatchilik ekologik nazoratini yo'lga qo'yish kabi mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda ekologik muammolarning yuzaga kelishi va kuchayishining agrar soha siyosati, ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv tizimi va tabiatga nisbatan iste'molchilik kayfiyati kabi ijtimoiy-tarixiy omillari hamda ijtimoiy-ekologik siyosatning konstitutsiyaviy, Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) integratsiyalashuvi va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi kabi huquqiy-metodologik asoslari ekologik muhit barqarorligiga aloqador subyektlarning istiqboldagi faoliyat yo'nalishlarini belgilashi asoslab berilgan;

globallashtirish jarayonida ekologik muammolarning O'zbekiston ijtimoiy-ekologik muhitiga aholi genofondi va salomatligiga biologik tahdidlarning ortishi, tabiiy resurslar taqchilligi tufayli "ekologik migratsiya"ning tezlashuvi kabi salbiy ta'sirini yumshatishda ijtimoiy-ekologik muhofazani kuchaytirishning aholining ekologik ongi, madaniyati va huquqiy savodxonlik darajasini yuksaltirish, yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini jadallashtirish hamda fuqarolik jamiyati

instituti va OAVning ekologik jarayonlardagi ijtimoiy faolligini oshirish kabi yo‘llari ochib berilgan;

O‘zbekistonda ekologik vaziyati og‘ir hududlar, yirik sanoat markazlari hamda suv resurslari taqchil zonalarda ijtimoiy-ekologik muhofazani barqaror rivojlantirish uchun davlat ijtimoiy-ekologik siyosatining jamoatchilik ekologik nazorati institutlarini kuchaytirish, davlat va xususiy sektor sherikligi (DXSH) mexanizmlarini kengaytirish hamda sohaga raqamli texnologiyalar va innovatsion menejmentni joriy etish kabi samaradorligini oshirish yo‘nalishlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar birlamchi qo‘lyozma manbalar, faktlar, statistik ma‘lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitiyasi, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi,

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g‘oyalardan “ijtimoiy ekologiya”, “globallashuv” va “siyosat falsafasi” yo‘nalishlaridagi tadqiqot ishlarini yangi ilmiy qarashlar bilan boyitishda, “ekologik globallashuv” va “ijtimoiy-ekologik siyosat”ning ilmiy talqini jamiyat va tabiat o‘zaro munosabatlarining zamonaviy paradigmalarni chuqurroq anglashda, shuningdek, O‘zbekistondagi ekologik jarayonlarni tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan fundamental tadqiqotlar uchun nazariy manba, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining ijtimoiy mexanizmlariga oid xulosalar jamiyatni demokratlashtirish va ekologik madaniyatni yuksaltirish nazariyasini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati atrof-muhit muhofazasi, ijtimoiy-ekologik siyosatni takomillashtirish hamda sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar, milliy strategiya va davlat dasturlarini ishlab chiqishda, ekologik ongni rivojlantirish bo‘yicha milliy strategiyalar ishlab chiqish va ekologik ta‘lim dasturlariga joriy etishda, Orolbo‘yi mintaqasidagi ijtimoiy-ekologik vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha ilgari surilgan tavsiyalar hududiy rivojlanish dasturlari samaradorligini oshirishga, fuqarolik jamiyati institutlarining aholi orasida ekologik madaniyatni targ‘ib qilish faoliyatida, shuningdek, ta‘lim muassasalarida “Falsafa”, “Ijtimoiy ekologiya” va “Siyosatshunoslik” fanlarini o‘qitishda, maxsus kurslar va o‘quv qo‘llanmalari tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ekologik globallashuv sharoitida O‘zbekistonning ijtimoiy-ekologik siyosati bilan bog‘liq muammolarni tadqiq qilish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

ijtimoiy-ekologik siyosatning antitsipativ (muammoni oldindan ko'ra bilish), integrativ (davlat va jamiyat birligi) va inklyuziv (barcha qatlamlarni qamrab olish) kabi innovatsion xarakteri, uning ekologik muhitni barqarorlashtirishdagi tabiat va jamiyatni o'zaro uyg'un rivojlanishni ta'minlash, sinergetik samaradorlikka erishish hamda ekzistensial xavfsizlikni kafolatlashdagi strategik ahamiyati hamda aholini ekologik tahdidlardan himoyalashning institutsional-huquqiy (qonun ustuvorligi), kognitiv-ma'rifiy (ekologik ong va ta'lim) va siyosiy (ochiqlik va shaffoflik) kabi omillariga oid nazariy xulosalari va amaliy takliflaridan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-11 raqamli "O'zbek xalqi va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transditsiplinar platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy ilmiy-tadqiqot loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 22-may 04/11-6412-son ma'lumotnomasi). Natijada, Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ekologik siyosatga oid kompleks chora tadbirlari ishlab chiqish hamda aholining ekologik savodxonligini oshirishga xizmat qilgan;

O'zbekistonda ekologik muammolar eskalatsiyasining siyosiy-iqtisodiy determinizm, geosiyosiy maqsadlar va strategik maqsadga yo'naltirilgan texnokratik siyosat kabi paradigmalardan bog'liqligi, ekologik globallashtirishning xalqaro ekologik standartlar integratsiyasi, transchegaraviy hamkorlik va barqaror rivojlanish konsepsiyasining institutsionallashtirish kabi omillariga doir nazariy xulosalari, taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining "O'zbekiston — 2030" strategiyasining Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2025 yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasi"da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 24-mart 2-15-21-1521-son ma'lumotnomasi). Natijada, tarmoq va sohalarning uyg'un "yashil transformatsiya"sini amalga oshirish, aholining yashash sifatini yaxshilash, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish, ekologik turmush tarzini shakllantirish va yoshlarning ekologik dunyoqarashi hamda salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilgan;

ijtimoiy-ekologik muhofazani kuchaytirishning obyektiv (konstitutsiyaviy-huquqiy bazaning yangilanganligi, tabiiy-resurs bo'yicha ma'danga boyligi va xalqaro geosiyosiy integratsiya, ijtimoiy institutsional tuzilma tizimi) kabi hamda subyektiv (siyosiy iroda, ekologik ong va madaniyat transformatsiyasi, ilmiy-intellektual salohiyat va innovatsion tafakkur, volontyorlik harakatining institutsionallashtirish) kabi imkoniyatlariga oid amaliy tavsiyalaridan O'zbekiston Ekologik partiyasining "Biz kelajak uchun javobgarmiz!" g'oyasini o'zining bosh shiori hisoblagan ustuvor yo'nalishlari va 2025-yilga mo'ljallangan Harakatlar dasturida belgilab olgan vazifalarini amalga oshirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Ekologik partiyasining 2025-yil 19-martdagi 01/84-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatning barqaror rivojlanishiga, ekologik xavfsizligiga erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun qulay atrof muhitni yaratish hamda tabiiy resurslarni saqlashga yo'naltirilgan davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda, atrof-muhit muhofaza qilish va tabiiy resurslarni saqlash davlat, jamiyat va mamlakat

har bir fuqarosining vazifasi bo'lishiga erishishga ko'maklashish hamda saylovoldi dasturlarini ishlab chiqish va qabul qilishga xizmat qilgan;

O'zbekistonning ekologik inqirozga uchragan hududlarida ijtimoiy-ekologik muhofazani barqaror rivojlantirish siyosatining "Yashil makon" umummilliy loyihasi tamoyillarini kommunal infratuzilma va urbanistika tizimiga integratsiya qilish, aholi uchun qulay va xavfsiz "ekomuhit" yaratish, hudud aholisining biologik va ijtimoiy moslashuv (adaptatsiya) salohiyatini yuksaltirish kabi strategik istiqbollari hamda uning ijtimoiy samaradorligini oshirishning hududlarning ijtimoiy-ekologik pasportlashtirish tizimini raqamlashtirish, mahalla institutida jamoatchilik ekologik nazoratini yo'lga qo'yish kabi mexanizmlariga doir nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 1-fevral kuni efirga uzatilgan Ochiq muloqot dasturida "Tabiatni asrashga barchamiz mas'ulmiz" nomli radioeshittirish ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 25-fevraldagi 17-05/39-son ma'lumotnomasi). Natijada, fuqarolarning sog'lom turmush tarziga amal qilish salohiyatini yanada kengaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishivahajmi. Dissertatsiyakirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 152 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ijtimoiy-ekologik siyosatning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida ijtimoiy-ekologik siyosat tushunchasi, uning ijtimoiy munosabatlardagi roli va shakllanish omillari tahlil qilingan. O'zbekistonda ekologik muammolar eskalatsiyasining ijtimoiy-tarixiy omillari hamda ijtimoiy-ekologik siyosatni alohida soha sifatida shakllantirishning ilmiy-falsafiy asoslari tadqiq etilgan.

Ekologik muammolarning keskinlashuvi davlat ekologik siyosati samaradorligini oshirishga boʻlgan ehtiyojni oshirmoqda. Yangi mingyillikda davlat ekologik siyosating tarkibida yangi ijtimoiy-ekologik siyosat shakllanib aholini ekologik muhofaza qilish borasida samarali natijalarga erishmoqda. Ijtimoiy-ekologik siyosat ekologik muhitni baraqarorlashtirishga xizmat qiladigan, koʻproq aholini ijtimoiy jihatdan ekologik tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan munosabatlar majmuini tashkil etadi.

Tadqiqotchi fikricha, globallashtirish jarayoni ijobiy natijalar bilan birga salbiy holatlarni ham shakllanishiga zamin yaratdi va quyidagilarda aks etmoqda: *birinchidan*, globallashtirish jahon bozorida iqtisodiy munosabatlardagi qarama-qarshilikni shakllantirdi; *ikkinchidan*, moliyaviy hamkorlikka putur yetkazishga harakatlarni kuchaytirdi; *uchinchidan*, jahondagi geosiyosiy xatti-harakatlarda boʻlinishlar, dunyo hokimiyatiga egalik qilish ishtiyoqining ortishiga; *toʻrtinchidan*, maʼnaviy-madaniy qadriyatlarga qarshi tajovuzlar, “ommaviy madaniyat” niqobi ostida oʻzga madaniyatlarni singdirish va targʻibot qilishlarda; *beshinchidan*, dinlararo konfliktlarni yuzaga keltirishda; *oltinchidan*, geoekologik tahdidlarni kuchaytirishda va hokazolarda roʻy bermoqda⁶.

Dissertatsiyada Linton K.Kolduell ilk bor “ekologik siyosat” tushunchasini fanga kiritganligi, bu tushuncha dastlabki davrlarda tabiiy muhitni ifloslantiruvchi texnologiyalardan foydalangan ishlab chiqaruvchini muayyan jarima toʻlashga undovchi choralarni nazarda tutishi asoslangan. Hozirda “ekologik siyosat” tushunchasi nisbatan kengroq maʼnoda qoʻllanilmoqda. “Ekologik siyosat deganda, jamiyatning tabiatga taʼsirini muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui nazarda tutilishi”⁷ qayd etiladi.

“Ekologik siyosat” davlatda olib borilayotgan tabiat va atrof-muhitni asrash, aholiga barqaror ekologik shart-sharoitlarni yaratish hamda ekologik xavfsizlikni taʼminlashga qaratilgan faoliyatdir. “Ijtimoiy-ekologik siyosat” deb, davlatning ekologik vaziyati ogʻir hududlarida aholini maxsus ijtimoiy muhofazasiga hamda ularga boshqa hududlardan farqli kompleks imtiyozlarni amalga oshirish va barcha shart-sharoitlarni taʼminlashga qaratilgan davlatning alohida ekologik siyotidan iborat faoliyat tarmogʻiga aytiladi.

Dissertant fikricha, “ijtimoiy-ekologik siyosat” aynan XXI asr boshlaridan davlat ekologik siyosatining alohida tarmogʻi sifatida mustaqil faollik kasb etayotgan boʻlsa-da, davlat siyosati tarkibidan rasman joy egallagan emas. Oʻzbekistonda Orolboʻyi mintaqasini rivojlantirish boʻyicha alohida davlat dasturlarining ishlab chiqilishi ekologik siyosat tarkibida “ijtimoiy-ekologik siyosat”ning shakllanganini koʻrsatadi⁸.

⁶ Омонов Б. Экологик глобаллашув ва унинг Ўзбекистондаги экологик мухитга таъсири. –Т.: 2021. –Б.12-15.

⁷Омонов В.Н. Экологик глобаллашув ва унинг Ўзбекистон экологик сиёсатига таъсири: Фалс.ф.д. (DSc) дисс. –2022: СамДУ, 2022. –Б.149.

⁸Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 18.01.2017 yildagi PQ-2731-son “2017-2021 yillarda Orolboʻyi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi toʻgʻrisida” qarori / <https://lex.uz/uz/docs/3099705>; Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.01.2022 yildagi 41-son “Orolboʻyi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” / <https://lex.uz/ru/docs/5836850>.

Tadqiqotda O‘zbekistonda ekologik muammolarning yuzaga kelishi obyektiv asoslari va subyektiv omillari tadqiq etilgan. Uning ijtimoiy-tarixiy asoslarini: *birinchidan*, ekologik muammolar O‘zbekiston hududida qadimdan mavjud bo‘lgan jarayon; *ikkinchidan*, ekologik muammolar mavjud bo‘lsa-da, ekologik inqirozni keltirib chiqarmagan; *uchinchidan*, ekologik muammolarning kuchayishi va Orol dengizining qurishi chor Rossiyasining maxsus rejasi va sobiq Ittifoq mustamlakachilik siyosatining natijasi va Markaziy Osiyo mamlakatlariga qoldirgan merosi tashkil etishi ta’kidlangan.

Ijtimoiy-ekologik siyosatning ilmiy asoslariga: jahonda ekologik inqirozning kuchayishi O‘zbekiston ekologik muhitini izdan chiqarish ehtimoli yuqoriligi; aholi sonining o‘sishi tabiiy resurslarga bo‘lgan talabni obyektiv oshirishi; O‘zbekistonning ba’zi hududlarida ekologik vaziyat krizisi yuzaga kelish ehtimoli yuqoriligi; davlat siyosati tizimini rivojlantirish borasida yuzaga kelayotgan islohotlarning sekin kechayotganligi sabab bo‘lmoqda.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida ekologik barqarorlikning o‘rni muhim sanaladi. Ekologik barqarorlik ta’minlanmagan joyda iqtisodiy rivojlanish natija bermaydi. Ekologik vaziyati og‘ir hududlarda ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-madaniy, ekologik, texnologik va boshqa sohalarining rivojlanishida ijtimoiy-ekologik siyosat davlatning tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish tizimini optimallashtiradi.

Ijtimoiy-ekologik siyosat jamiyat va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, u ekologik muhitni barqarorlashtirish, aholini ekologik tahdidlardan himoya qilish hamda inson manfaatlarini ekologik xavfsizlik bilan uyg‘unlashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tabiiy resurslardan noto‘g‘ri va biryozlama foydalanish, hududiy xususiyatlar inobatga olinmagan boshqaruv qarorlari hamda tashqi iqtisodiy manfaatlarni ustuvor qo‘yish ekologik vaziyatning keskinlashuviga olib keladi. Bu esa global ekologik jarayonlar sharoitida ijtimoiy-ekologik siyosatni tizimli, ilmiy va insonparvar yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ekologik globallashtirish sharoitida O‘zbekiston ekologik siyosatining funksional xususiyatlari”** deb nomlanib, unda global ekologik muammolarning O‘zbekiston ijtimoiy-ekologik muhitiga ta’siri, ijtimoiy-ekologik muhofazani kuchaytirishning obyektiv asoslari va subyektiv omillari hamda O‘zbekiston ekologik siyosatida Orolbo‘yi mintaqasini barqarorlashtirish masalalari tahlil qilingan.

Ekologik globallashtirish sharoitida inson va tabiat munosabatlari yangi sivilizatsion bosqichga ko‘tarilib, ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror taraqqiyot masalalari har bir davlat siyosatining strategik ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish, suv resurslarining tanqisligi, bioxilma-xillikning yo‘qolishi kabi global ekologik muammolar jahon miqyosida iqtisodiy barqarorlik va inson salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Dissertatsiyada O‘zbekistonda ekologik globallashtirish jarayonlari, ayniqsa Orolbo‘yi ekologik inqirozi, urbanizatsiya, sanoatlashuv va suv resurslaridan

foydalanishdagi muammolar ijtimoiy-ekologik muhitni qayta shakllantirib, ekologik siyosatni milliy xavfsizlik, ijtimoiy adolat va ma'naviy taraqqiyot masalalari bilan uzviy bog'liq holda olib borishni talab etishi qayd etilgan.

Ekologik munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos sohasi bo'lib, subyektlar o'rtasida mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, inson turmushi uchun zarur bo'lgan tabiiy shart-sharoitlarni maqbullashtirish, tabiat va tabiiy muhitni muhofaza qilish maqsadida amalga oshirilgan aloqalarni ifodalaydi⁹. Shu ma'noda, ekologik munosabatlar: ekologik vaziyat; ekologik munosabatlar; ekologik muammolardan iborat. Ushbu jarayonlar O'zbekistonning ekologik muhitidagi *ekologik vaziyatdagi o'zgarishlarga; ekologik munosabatlardagi o'zgarishlarga; ekologik muammolar jadallashuviga* sabab bo'lmoqda. Bu jarayon jahonda kechayotgan ekologik munosabatlarning O'zbekistondagi ekologik munosabatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatayotganini anglatadi.

Tadqiqotchining fikricha, ekologik muhofazani kuchaytirishining obyektiv asoslari va subyektiv omillari O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlashni yanada kuchaytirishga, aholiga maqbul ekologik shart-sharoitlarni yaratish vazifasini takomillashtirishga, favqulodda xavf-xatarlarning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish tizimini rivojlantirishga undaydi. Mavjud obyektiv ekologik o'zgarishlarga e'tiborsiz qolish mintqa ekologik muhitiga katta zarar beradi va mamlakat xavfsizligini tang ahvolga qoldiradi. Shuning bilan birgalikda, ekologik muhitga ta'sir etayotgan subyektiv omillar ham borki, bular mamlakat ekologik siyosatini takomillashtirishni va ijtimoiy-ekologik xavfsizlikni kuchaytirishni talab qiladi.

Ekologik barqarorlikni mustahkamlash borasida 2019-2028 yillarga mo'ljallangan Biologik xilma-xillik talablarini bajarish maqsadida alohida "O'zbekistonda biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi" ishlab chiqilib amaliyotga joriy etildi. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida "Bioxilma-xillikni saqlab qolinishi hamda undan unumli foydalanish chora-tadbirlari"ga muvofiq asosiy vazifalar quyidagilarda aks etadi:

1) ushbu rejaga asosan uning normativ-huquqiy bazasini, o'simlik olami va hayvonot dunyosi obyektlarini raqamlashtirish davlat kadastri hamda monitoringini takomillashtirish;

2) bioxilma-xillik haqida davlat ekologik siyosati faoliyatini takomillashtirishga doir ratsional kompleks qarorlar qabul qilish uchun real axborotlashtirish tizimini rivojlantirish;

3) kamyob va noyob o'simliklar, hayvonlar turlarini ko'paytirish tadbirlari sonini, muhofazalanadigan hududlar maydonini oshirish, qo'riqlanadigan hududlardan noqonuniy foydalanishga chek qo'yish, ekologik turizmni rivojlantirish¹⁰.

⁹Омонов Б. Экологик глобаллашув ва унинг Ўзбекистон экологик сиёсатига таъсири. –Т.: "VORIS – NASHRIYOT", 2021. –Б.20-21.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2019 yildagi 484-son "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-4372839>

Orol dengizi halokati genezisi maxsus rejalarga ko‘ra sun‘iy quritish siyosatining natijasidir. Uni saqlab qolish rejasi: *birinchidan*, nomiga amalga oshirilgan mafkuraviy ko‘zbo‘yamachilikdan iborat jarayon; *ikkinchidan*, Orol muammosini sobiq Ittifoq davrida o‘rganishni nazarda tutgan olimlar, mutaxassislar va ekspertlar ikki guruhga ajralib yakdil xulosaga kelisholmaslik; *uchinchidan*, uni saqlab qolishda davlatning alohida jonbozlik qilmaganida ko‘rishimiz mumkin.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, global ekologik inqirozlar, ya‘ni iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining kamayishi, cho‘llanish va bioxilma-xillikning yo‘qolishi –ijtimoiy-ekologik muhit tizimini shakllantirmoqda va ekologik siyosatni davlatning strategik funksiyasiga aylantirmoqda. Globallashuv jarayonida ekologik muammolarning O‘zbekiston ijtimoiy-ekologik muhitiga ta‘siri ko‘p qirrali bo‘lib, u iqtisodiy rivojlanish, aholi salomatligi, demografik barqarorlik va ma‘naviy makonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi. Bu holatda ekologik siyosatning obyektiv asoslari sifatida tabiiy resurslar tanqisligi, iqlim xavflari va iqtisodiy modernizatsiya talablari namoyon bo‘lsa, subyektiv omillar sifatida ekologik madaniyat darajasi, fuqarolik mas‘uliyati, davlat boshqaruvining samaradorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Orolbo‘yi mintaqasini barqarorlashtirishda xalqaro hamkorlik, innovatsion agrotexnologiyalar, yashil iqtisodiyot strategiyalari va aholi farovonligini oshirish dasturlari amaliy mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Orolbo‘yi mintaqasida ijtimoiy-ekologik muhofazani ta‘minlashni, shu sohaga mutasaddi davlat va nodavlat institutlar faoliyatini takomillashtirish va integratsiyalashtirish asosida amalga oshirish samarali natijani beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekistonda ijtimoiy-ekologik muhofazani optimallashtirish strategiyasi”** deb nomlanib, unda O‘zbekistonning ekologik xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi vazifalari, istiqboldagi rejalari, shu kunga qadar erishilgan yutuqlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini takomillashtirish va integratsiyalashtirish yo‘llari hamda ijtimoiy-ekologik barqarorlikni ta‘minlash strategiyasining istiqbollari tahlil etilgan.

Tabiat va inson bir-birini o‘zaro asrash muhitini yaratish evaziga yechim topishi oydinlashmoqda. Insoniyat tabiatni ko‘proq asrashi o‘ziga bo‘lgan in‘omlarni shunchalik ko‘proq olishini anglamoqda. Shu jihatdan qaralsa, O‘zbekistondagi ekologik xavfsizlikni samarali ta‘minlashning asosiy omillaridan biri, unga mutasaddi tashkilotlar faoliyatini o‘zaro integratsiyalashtirishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Davlatda chiqarilayotgan qonunlar, qarorlar, farmoyishlar, qabul qilinayotgan konsepsiyalar ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga xizmat qiladigan omillar sarasiga kiradi.

Tadqiqotda ekologik xavfsizlikka mutasaddi institutlar faoliyatining takomillashuvi va integratsiyalashuvi ikki asosga ko‘ra tahlil qilingan:

birinchisi, shaxs ekologik ma‘naviy intellektini oshirishni ta‘minlash yordamida;

ikkinchisi, yuridik shaxslar va yuqori davlat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish va integratsiyalashtirish asosida.

Shu jihatdan qaraganda ekologik nazorat tizimini kuchaytirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblangan:

- ekologik nazoratga mas'ul davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasida integratsiyalashgan mexanizmlarni yaratish;

- masofadan monitoringni kuchaytirish, dronlar, sputniklar va boshqa zamonaviy texnologiyalarni ekologik nazoratda foydalanish, ekologik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish uchun avtomatlashtirilgan tizimlarni yaratish;

- hisobdorlik mexanizmlarini takomillashtirish, ekologik qonunbuzarliklarga javobgarlikni oshirish, ekologik nazoratni samaralilashtirish uchun javobgar tashkilotlarni aniqlash, ekologik nazoratni xalqaro standartlarga moslashtirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

- moliyaviy resurslarni rag'batlantirish, nodavlat sektorning ekologik tadbirlarda faol ishtirokini ta'minlash.

Dissertant fikricha, ushbu takliflar ekologik nazorat tizimini kuchaytirish va integratsiyani mustahkamlashda samarali bo'lishiga xizmat qiladi, davlat va xususiy ta'lim muassasalari o'rtasidagi sog'lom raqobat samaradorlikni oshirishga olib keladi. O'zbekistonda ekologik muhitni barqarorlashtirish sohasida olib borilayotgan ekologik siyosati tarkibidagi ijtimoiy-ekologik siyosatni takomillashtirish vazifalari "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" va "O'zbekiston – 2030" strategiyasining mazmun-mohiyatiga singdirilgan. Amalga oshirilayotgan barcha ishlar O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan.

Ijtimoiy-ekologik siyosatni takomillashtirish ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim omilidir. Ijtimoiy-ekologik siyosat O'zbekistonning barcha hududlariga tegishli jarayon emas. Kompleks ekologik qamrovni ekologik siyosat amalga oshiradi. Ijtimoiy-ekologik siyosatning vazifasi ekologik vaziyati og'ir hududlarda ijtimoiy muhofazani ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonning ijtimoiy-ekologik siyosatining Orolbo'yi mintaqasiga qaratilishi muhim ahamiyat kasb etib, bu borada 2030 yilga qadar ishlar rejasi shakllantirilgan. Masalan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida Orolbo'yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta'sirini yumshatish borasida: birinchidan, Orolbo'yi mintaqasidagi o'rmonzorlarni 2,3 million gektarga yetkazish; ikkinchidan, Orol dengizining qurigan tubida qo'shimcha 600 ming gektar yashil maydonlarni barpo etib, ularning umumiy hajmini 2,6 million gektarga yoki hududning 80 foiziga yetkazish; uchinchidan, "Yashil iqlim" va Global ekologik jamg'armalarning bioxilma-xillik, iqlim o'zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million dollar qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish; to'rtinchidan, xalqaro hamkorlar bilan "Orol dengizi havzasining quyi oqimidagi degradatsiyaga uchragan yerlar holatini yaxshilash" loyihasini amalga oshirish¹¹ jarayoni boshlab yuborilgan. Olib

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida farmoni, // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

borilayotgan ishlar natijasi tahsinga sazovor bo'lsa-da, ijtimoiy-ekologik muhofazani kompleks kuchaytirish borasida mintaqada yanada kengroq va samarali ishlarni yo'lga qo'yish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

